

**Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti Raqamli
texnologiyalar, turizm va gumanitar fanlar (PhD), dotsenti Absalamova
Gulmira Sharifovna tomonidan Iqtisodiyot ta'lim yo'nalishi 1-bosqich 105-
guruh talabalariga Ingliz tili fanidan "Ecological problems" mavzusida
tayyorlangan amaliy mashg'ulot ishlanmasiga**

TAQRIZ

Yurtimizda xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan talab yildan-yilga o'sib bormoqda, xususan ingliz tilini innovatsion metodlar asosida o'qitishga bo'lgan e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu esa, o'z navbatida, filolog-pedagoglar zimmasiga katta ma'suliyat yuklaydi.

G.Absalamova tomonidan ingliz tili fanidan 1-bosqich 105-guruh talabalariga "Ecological problems" mavzusida tayyorlangan amaliy mashg'ulot ishlanmasi turar joy turlari to'g'risida aniq va kerakli ma'lumotlar berilgan, shuningdek, mavzuga tegishli yangi so'zlar va topshiriqlar ko'rsatilgan. Amaliy mashg'ulotda grammatikaga mavzusiga doir "Past Simple" qiziqarli ma'lumotlar ko'rsatilgan va misollar bilan boyitilgan.

G.Absalamova "Ecological problems" mavzusini turli tarqatma materiallar yordamida va Power Point dasturida tayyorlangan slaydlar vositasida yoritib bergan hamda mavzuga doir qiziqarli ma'lumotlar keltirgan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, G.Absalamova amaliy mashg'ulot ishlanmasi fanning ishchi dasturiga va ish rejasiga asosan tayorlagan. Amaliy mashg'ulotning ishlanmasi uslubiy ko'rsatmalar, nazorat va test savollariga asoslangan holda to'g'ri yoritilgan.

Ochiq dars ishlanmasini yuzasidan xulosamiz shundan iboratki, G.Absalamova tomonidan o'tkazilishi rejalashtirilgan ochiq amaliy mashg'ulot darsi bugungi kun talablariga javob beradi, talabalarning ingliz tili bo'yicha bilim va ko'nikmalarini, dunyoqarashini oshirishga xizmat qiladigan darajadagi dars bo'ladi deb hisoblayman va o'qituvchi tajribasini ommalashtirishni tavsiya qilaman.

SamDChTI
Ingliz tili nazariy aspektlari
kafedrasi dotsenti



PhD N.M. Suleymanova
TASDIQLAYMAN
SamDChTI KADRLAR

**Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti Raqamli
texnologiyalar, turizm va gumanitar fanlar (PhD), dotsenti Absalamova
Gulmira Sharifovna tomonidan Iqtisodiyot ta'lim yo'nalishi 1-bosqich 105-
guruh talabalariga Ingliz tili fanidan "Ecological problems" mavzusida
tayyorlangan amaliy mashg'ulot ishlanmasiga**

TAQRIZ

G.Absalamova tomonidan Iqtisodiyot ta'lim yo'nalishi 1-bosqich 105-guruh talabalariga ingliz tili fanidan "Ecological problems" mavzusida amaliy mashg'ulot ishlanmasi tayyorlangan.

Amaliy mashg'ulot ishlanmasi Biotexnologiya ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabalariga uchun mo'ljallangan bo'lib, u o'quv dasturi va ishchi dastur rejasiga mos keladi.

Amaliy mashg'ulot ishlanmasi uslubiy jihatdan to'g'ri yozilgan, unda mavzuga oid bo'lgan barcha ma'lumotlar to'liq yoritilgan. Bundan tashqari amaliy mashg'ulot ishlanmasi zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tayyorlangan bo'lib, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, matnning oxirida nazorat va test savollar berilgan.

Ingliz tilini o'qitishning davlat ta'lim standarti (CEFR) bo'yicha to'rtta kunikmalar: 1. Listening (tinglab tushunish), 2. Reading (o'qish), 3. Speaking (gapirish), 4. Writing (yozish) asosida tayyorlangan qiziqarli topshiriqlardan juda samarali ravishda foydalanish maqsad qilib qo'yilgan.

G.Absalamova dars davomida o'zining chuqur bilimini, pedagogik mahoratini ishga solib darsning mazmunini talabalarga yetkazib berishni maqsad qilgan. Dars davomida axborot texnologiyalaridan va interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ishlab chiqilganligi ochiq amaliy darsini samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, G.Absalamova tomonidan o'tkazilishi rejalashtirilgan ochiq amaliy mashg'ulot darsi ishlanmasi uslubiy jihatdan to'g'ri yozilgan. U o'zining mazmun va mohiyati, amaliy masalalarning yoritilishi bilan bugungi kun talabiga to'liq javob beradi va o'qituvchi tajribasini ommalashtirishni tavsiya qilaman.

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
O'zbek, rus tillari adabiyoti va xorijiy tillar
kafedrasi dotsenti v.v.b., (PhD)**

D.Yunusova